

YURIDIK TERMINLAR TARJIMASIDA ADAPTATSIYA

Farhod Eliboyev*TDSHU mustaqil tadqiqotchisi***Annotatsiya**

Ushbu maqola yuridik tarjimada adaptatsiya jarayonining mohiyati, usullari va ahamiyatini tahlil qiladi. Yuridik matnlarni tarjima qilishda aniqlik, mas'uliyat va lingvistik hamda madaniy komponentlarni hisobga olish zarurati ta'kidlanadi. Maqolada yuridik terminlarni adaptatsiya qilishning professional, pragmatik va falsafiy asoslari ko'rib chiqilgan. Adaptatsiya jarayoni tarjimonning huquqiy bilim, lingvomadaniy vositachilik salohiyatini oshirish bilan birga, turli huquqiy tizimlar o'rtasida o'zaro tushunishni ta'minlashda muhim vosita ekanligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: *yuridik tarjima, adaptatsiya, huquqiy terminlar, pragmatik adaptatsiya, lingvomadaniy vositachilik, huquqiy madaniyat.*

Yuridik tarjima o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, u murakkab va nozik jarayon hisoblanadi. Umumiy tarjimadan farqli o'laroq, yuridik matnlarni tarjima qilishda yuqori aniqlik va mas'uliyat talab etiladi, chunki eng kichik xato ham jiddiy huquqiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli tarjimon nafaqat tilni yaxshi bilishi, balki mamlakatlarning huquqiy tizimlarini yaxshi tushunishi kerak. Yuridik terminlar adaptatsiyasi aynan shu nuqtada muhim ahamiyat kasb etadi: u turli yurisdiksiyalarda turlicha ma'no beruvchi huquqiy tushunchalar va atamalarni tarjima qiluvchiga moslab tushunarli qilish imkonini yaratadi.

So'nggi yillarda olimlar yuridik tarjima jarayoniga, xususan, huquqiy terminlarni adaptatsiya qilish masalalariga qiziqishning sezilarli darajada ortib borayotganini ta'kidlamogda. Mazkur qiziqish tarjimaning lingvistik va madaniy xilma-xillik sharoitida yuridik tizimlar o'rtasidagi o'zaro ta'sirni ta'minlashdagi muhim ijtimoiy-gumanitar roliga borib taqaladi.

Ushbu mavzuga oid ilmiy izlanishlarda huquqiy tarjima, xususan, terminlarni adaptatsiya qilish samaradorligi asosan ekstralingvistik va pragmatik omillar bilan shartlantirilishi ta'kidlab o'tilgan. Bunday faktorlar orasida milliy yuridik tizimlarning o'ziga xos jihatlarini chuqur bilish, huquqiy jarayonlarning individual xususiyatlarini anglash, shuningdek, huquqiy kontekstdagi ishtirokchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mohiyatini ko'pincha shaxslararo muloqotning madaniy va pragmatik me'yorlari bilan bog'liq holda chet tilida to'liq va aniq ifodalay olish qobiliyati muhim o'rin tutadi.



“Tarjimaning pragmatik adaptatsiyasi – bu tarjima matniga kiritiladigan o‘zgarishlar bo‘lib, ularning maqsadi aynan ma’lum bir tarjima qabul qiluvchisi tomonidan kerakli reaksiyani uyg‘otishdir”¹⁵.

Biz ishlab chiqayotgan yondashuv adaptatsiya hodisasini falsafiy va pragmatik nuqtai nazardan talqin qilishga asoslanadi. Falsafiy nuqtai nazardan adaptatsiya subyekt (shaxs yoki tizim) va uning atrof-muhiti o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir jarayonida tub o‘zgarishlar yuz bergan sharoitlarda hayotiy barqarorlikni saqlashning muhim sharti hisoblanadi. Shu bilan birga, u ijtimoiy, psixologik, ijtimoiy-madaniy hamda kommunikativ o‘lchovlarni o‘z ichiga olgan murakkab, ko‘p qirrali mexanizm sifatida talqin etiladi. Mazkur komponentlarning uyg‘unlashuvi subyektlar bilan muhit o‘rtasida samarali o‘zaro moslashishni ta’minlaydi hamda adaptatsiya jarayonida ishtirok etuvchi tomonlarning ehtiyojlari, talablari va kutishlarini muvozanatlashtirishga xizmat qiladi.

“Yuridik tarjimada adaptatsiya mohiyatini va uning vositalarini o‘rganishda albatta dolzarb bo‘lgan jihatlar funksional-lingvistik asoslar bo‘lib, ular solishtirma tilshunoslik an’analarini jamlaydi. Ushbu asoslar tarjimada tabiiy mosliklarni aniqlash texnologiyalarini, manba tili va tarjima tili matnlaridagi lingvistik birliklarning mutanosibligini belgilashni, shuningdek tarjima jarayonida turli transformatsiya turlarini aniqlashni o‘z ichiga oladi va bu barcha jarayonlar lingvistik tahlil doirasida amalga oshiriladi”¹⁶.

Yuridik terminlarni tarjima qilishda adaptatsiya (moslashuv) masalasini o‘rganishda taklif qilingan integrative va pragmatik yondashuv huquqiy tarjima sohasi uchun istiqbolli yo‘nalishdir. Chunki bu jarayonda faqat tilning o‘zini yaxshi bilish yetarli emas, balki huquqiy soha bo‘yicha maxsus bilimlar ham muhim ahamiyatga ega.

Adaptatsiyani falsafiy nuqtai nazardan ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatadiki, bu hodisani faqat yakuniy natija sifatida emas, balki tarjima jarayonining o‘zini tahlil qilish orqali ham tushunish kerak. Bunday yondashuv samarali tarjima usullari va texnikalarini aniqlash va rivojlantirishga yordam beradi.

Shu bilan birga, adaptatsiyani falsafiy kategoriya sifatida talqin qilish tilshunoslikdagi moslashuv yondashuvini shakllantirish uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Tadqiqotchilar bu yondashuvning asosiy mohiyatini quyidagicha izohlaydilar: matnning mazmunini saqlab qolgan holda, uni boshqa etnik va ijtimoiy-madaniy muhitdagi qabul qiluvchiga moslashtirish.

Bu yondashuv yuridik matnlarni tarjima qilishda nafaqat so‘zma-so‘z tarjima qilib berish, balki huquqiy mazmunni yangi auditoriya uchun tushunarli va qonuniy jihatdan to‘g‘ri yetkazish imkonini beradi.

¹⁵ Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Высш. шк., 1990. – С. 249.

¹⁶ Атабекова А.А. Профессионально ориентированная культурно-прагматическая адаптация в юридическом переводе: к основаниям концепции // Вестник Челябинского государственного университета. Филология. Искусствоведение. – 2012. – № 17 (271). – Вып. 66. – С. 27.



Huquqiy tarjima – bu manba tilidagi huquqiy matnni oddiy so‘zma-so‘z tarjima qilish emas, balki undagi huquqiy tushunchalar va jarayonlarni tarjima qilinayotgan tilidagi huquqiy tizimning mos tushunchalari va jarayonlariga moslashtirish demakdir.

Huquqiy tarjimada adaptatsiya jarayoni quyidagicha amalga oshiriladi:

- tarjimon avval matndagi huquqiy vaziyatni to‘liq tushunadi;
- keyin uni o‘z xotirasidagi ikki huquqiy tizim bo‘yicha bilimlari asosida qayta talqin qiladi. Shu jarayonda:

1. ikki huquqiy madaniyatdagi farqlarni solishtiradi,
2. vaziyat ishtirokchilari qanday harakat qilishi mumkinligini o‘ylaydi,
3. eng to‘g‘ri va tushunarli variantni tanlaydi.

Natijada matnning asl ma‘nosi yangi huquqiy muhitda ham aniq, to‘g‘ri va foydali tarzda yetib boradi.

Bu moslashuv jarayoni tarjimonning huquqiy fikrlash uslubi va an‘anaviy huquqiy ssenariylarni eslab qolish qobiliyatiga asoslanadi. Shuning uchun huquqiy tarjima nafaqat til, balki huquqiy mantiq, madaniyat hamda pragmatik darajasda ham moslashishni talab etadi.

“Adaptatsiyalangan tarjima – bu asl matnning tuzilmasi va mazmunini qisman tushuntirish (soddalashtirish va izohlash) orqali amalga oshiriladigan tarjima jarayoni bo‘lib, uning maqsadi tarjima matnini ma‘lum bir qabul qiluvchilar guruhiga tushunarli qilishdir. Bu qabul qiluvchilar asl matnni to‘liq anglash uchun zarur bo‘lgan yetarli bilim, kasbiy yoki hayotiy tajribaga ega bo‘lmasligi mumkin”¹⁷.

Yuridik terminlarni tarjima qilishda oddiy moslashtirish (adaptatsiya) usuli qo‘llanilganda, chet tilidagi huquqiy tushunchalar va jarayonlarni o‘zbek tilida tushunish hamda ifodalashda jiddiy farqlar yuzaga keladi. Bu farqlar asosan ongda shakllangan tasavvurlarning o‘ziga xosligida namoyon bo‘ladi: ya‘ni, biror huquqiy holatni tasvirlovchi umumiy modellar (tipik vaziyat tasavvurlari) tarkibida, ma‘no tuzilishidagi asosiy o‘rinlar va bo‘shliqlar ro‘yxatida hamda har bir o‘rinning qanday ma‘no bilan to‘ldirilishida sezilarli tafovutlar kuzatiladi. Masalan, bir xil huquqiy hodisa, sud jarayoni yoki shartnoma tuzish, turli tillar va huquqiy tizimlarda odamlar ongida mutlaqo boshqacha tasavvur hosil qilishi mumkin. Bir tizimda muhim deb hisoblangan element ikkinchisida deyarli e‘tiborga olinmaydi, yoki aksincha, bir joyda oldinga chiqadigan tafsilot boshqa joyda umuman ko‘zga tashlanmaydi yoki butunlay boshqacha nom bilan ifodalanadi. Bu holat shunchaki nazariy mulohaza emas, balki kognitiv lingvistika va tarjimonlik sohasidagi ko‘plab amaliy, tajribaviy va pragmatik tadqiqotlar natijalari bilan tasdiqlangan haqiqatdir.

¹⁷ Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Высш. шк., 1990. – С. 49.





“Ushbu farqlar obyektiv xususiyatga ega bo‘lib, lingvistik nisbiylik nazariyasi (Seypir-Uorf gipotezasi)ning asosiy tamoyillari bilan mos keladi”¹⁸.

“Lingvistik nisbiylik gipotezasi - XX asrning 30-yillarida ikki amerikalik olim, E.Seppir (1884–1939) va B.Li Uorf (1897–1941) tomonidan ishlab chiqilgan tushuncha bo‘lib, til va unga mos keluvchi til tuzilmasining tafakkur shakllanishi hamda dunyoni qabul qilish uslubiga ta’sirini o‘rganadi”¹⁹. Boshqacha aytganda, ushbu gipotezaga ko‘ra, til tuzilishi tafakkurni va haqiqatni anglash uslubini belgilaydi; ya’ni, turli tillarda so‘zlashadigan odamlar dunyoni turlicha qabul qiladi va turlicha fikrlaydi.

Taqqoslanayotgan vaziyatlarning tarkibiy elementlaridagi tafovutlar, bilimlarni ifodalash shakllarining xilma-xilligi, shuningdek lingvistik tizimlarning o‘ziga xosligi va ularning strukturalari, huquqiy matnlarni boshqa tilga tarjima qilish jarayonida vaziyatlarni modellashtirish hamda ishtirokchilarning faoliyat jarayonlarini tahlil qilishni talab qiladi. Bu esa yuridik terminlar tarjimasida adaptatsiya jarayonining zaruriyatini yanada oshiradi.

Ushbu adaptatsiya jarayoni professional kontekstga yo‘naltirilgan bo‘lib, u ma’lum bir kasbiy soha, xususan yuridik faoliyat doirasidagi huquqiy matnlarga qo‘llanadi. Shuningdek, ikki tilli talqin jarayoni manba matnini boshqa huquqiy submadaniyat vakillari tomonidan tushuniladigan ixtisoslashgan axborot shakliga moslashtirishga, ya’ni yuridik terminlarning madaniy va pragmatik jihatdan moslashgan tarjimasini yaratishga qaratilgan. Shu tariqa, yozma huquqiy tarjimada adaptatsiya bir vaqtning o‘zida kasbiy yo‘naltirilgan va madaniy-pragmatik funksiyaga ega bo‘ladi.

Natijada, yuridik terminlar adaptatsiyasi matnni soddalashtirish yoki asl huquqiy materialning ma’nosini mavhumlashtirishni anglatmaydi. Aksincha, u turli milliy huquqiy madaniyat vakillari o‘rtasida o‘zaro tushunishni ta’minlash, huquqiy matnlarni aniq va kontekstga mos talqin qilish imkonini yaratish orqali yuridik tarjimonlarning lingvomadaniy vositachilik salohiyatini oshiradi.

Yuridik terminlar tarjimasida adaptatsiya - bu huquqiy tizimlarni chuqur tushunish, shuningdek madaniy va pragmatik komponentlarni hisobga olishni talab qiladigan murakkab jarayondir. Adaptatsiya matnni soddalashtirish yoki mazmunini o‘zgartirish emas, balki uni yangi huquqiy va madaniy kontekstga moslab, auditoriyaga tushunarli qilishga xizmat qiladi.

Bu jarayon tarjimonning professional malakasi va lingvomadaniy vositachilik salohiyatini oshiradi, huquqiy tushunchalarni turli yurisdiksiyalarda aniq va to‘g‘ri yetkazish imkonini yaratadi. Shuningdek, u turli milliy huquqiy madaniyatlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni ta’minlaydi va yuridik matnlarni qonuniy jihatdan to‘g‘ri talqin qilishga yordam beradi. Yuridik terminlar adaptatsiyasi tarjima jarayonining asosiy

¹⁸ Gutt E.A. Translation and relevance. Cognition and context. Manchester and Boston: St. Jerome Publishing, 2000. 376-p.; Sperber D. Relevance: Communication and Cognition / D. Sperber, W. Deirdre. Cornwall: Blackwell Publishing, 1986. 326-p.

¹⁹ Абдурахманова Н.Г. Гипотеза «Лингвистической относительности» // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2015. – № 9-2. – С. 10.





vositasi bo'lib, huquqiy matnlarni boshqa til va madaniy muhitda aniq, tushunarli va samarali yetkazishni ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gutt E.A. Translation and relevance. Cognition and context. Manchester and Boston: St. Jerome Publishing, 2000. 376-p.
2. Sperber D. Relevance: Communication and Cognition / D. Sperber, W. Deirdre. Cornwell: Blackwell Publishing, 1986. 326-p.
3. Абдурахманова Н.Г. Гипотеза «Лингвистической относительности» // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2015. – № 9-2. 8-11 с.
4. Атабекова А.А. Профессионально ориентированная культурно-прагматическая адаптация в юридическом переводе: к основаниям концепции // Вестник Челябинского государственного университета. Филология. Искусствоведение. – 2012. – № 17 (271). – Вып. 66. 25–29 с.
5. Атабекова, А. А. Юридический перевод в междисциплинарном контексте: монография. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2011. 131-с.
6. Верещагин Е. М. Костомаров В. Г. Лингвострановедческая теория слова. – М.: Рус.яз., 1980. 320-с.
7. Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты): Учеб. для ин-тов и фак. иностр. яз. – М.: Высш. шк., 1990. 253-с.
8. Уорф, Б.Л. Наука и языкознание / Языки как образ мира/ Б.Л. Уорф. – М.-СПб: Terra Fantastica, 2003. 214-с.
9. Ширяев А.Ф. О специфике психолингвистической трактовки перевода // Теория перевода и методика подготовки переводчиков: материалы науч.-практ. конф. – М.: Воен. ун-т, 1999. 259–260 с.